

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ABDULLAYEV RAVSHAN KARIMDJANOVICH

**PAXTADAN TOLA VA CHIGITLARNI SIFATLI AJRATISHNI
TA'MINLOVCHI PNEVMOMEXANIK JIN MASHINASINI YARATISH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническом наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor
of philosophy (PhD) on technical sciences**

Abdullayev Ravshan Karimjanovich

Pahtadan tola va chigitlarni sifatli ajratishni ta'minlovchi
pnafmomexanik jin mashinasini yaratish..... 5

Абдуллаев Равшан Каримджанович

Создание пневмомеханической джиновой машины для обеспечения
качественного выделения волокна и семян из хлопка-сырца.... 25

Abdullayev Ravshan Karimjanovich

Improving lint quality by improving the linting process 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ABDULLAYEV RAVSHAN KARIMJANOVICH

**PAXTADAN TOLA VA CHIGITLARNI SIFATLI AJRATISHNI
TA'MINLOVCHI PNEVMOMEXANIK JIN MASHINASINI YARATISH**

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2023

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2018.4.PhD/T928 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muxandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifaciga www.nammti.uz va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedxodjaev Xamit Tursunovich

texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy
opponentlar:**

Qayumov Abdul-malik Xamidovich

texnika fanlari doktori, professor

Mamasharipov Abdunabi

texnika fanlari nomzodi, dotsent

Etakchi tashkilot:

Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD 03/30.12.2019.T.66.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 y. 29 dekabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahar, Kosonsoy, 7-uy. tel: (+99869) 225-10-07, faks: 228-76-75; e-mail: niei_info@edu.uz. Namangan muhandislik- texnologiya instituti 3- binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiyasi ishi bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 259-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil 11-dekabr kuni tarqatildi.
(2023 yil 11-dekabrdagi № 136 raqamli reestr bayonnomasi).

R.M. Muradov

*Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, texnika
fanlari doktori, professor.*

X.T. Bobojanov

*Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, dotsent.*

Q.M. Holiqov

*Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidag ilmiy seminar
raisi, texnika fanlari doktori, professor.*

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasiga avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda “Paxta bo‘yicha xalqaro konsultativ qo‘mita” (ISAS) ma‘lumotlariga qaraganda 2020 – 2021 yillar mavsumida Dunyo miqyosida 23,02 mln tonna paxta tolasi ishlab chiqildi, uning iste‘moli 24,8 mln tonna, tola zaxiralari esa 16,4 mln tonnani tashkil etish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda tola ishlab chiqarish 25,8 mln tonnani tashkil etishi kutilmoqda. Bu borada, jumladan paxta tolasiga talabni oshishi o‘z navbatida uning sifati va uni ishlab chiqarish samaradorligini to‘xtovsiz oshirib borishini talab etilmoqda. Shunga ko‘ra jahon miqyosida paxta mahsulotlari sifati yaxshilash va tannarxni kamaytirishda qaratilgan tadqiqotlar ko‘lami ortib borishiga aloxida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga yuqori iste‘mol sifat ko‘rsatkichlariga esa bo‘lgan paxta mahsulotlari olishni ta‘minlaydigan paxta navlarini joriy qilish, paxta tolasining Len – yuqori o‘rtacha uzunligi, Unf – uzunlik bo‘yicha bir xilligi, SFI – kalta tolalar indeksi foizini kamaytirish, Str – solishtirma uzilish kuchini saqlab qolish kabi sifat ko‘rsatkichlarini ta‘minlaydigan hamda ishlab chiqarish harajatlarini kamaytiruvchi resurstejamkor texnologiyalarni yaratish muxim vazifalarga aloxida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahon tajribasida paxta tolasi, urug‘lik va texnik chigitlar sifati yaxshilash, texnika va texnologiyalarni rivojlantirilishi borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, paxtadan tola va chigitlarni ajratib olinishi, ya‘ni jinlash jarayonida mashinalarni yanada takomillashtirilishi yo‘nalishlarida mahsulotlar sifati oshirish, uskunalarni ixchamlashtirish, sodda, kam material va elektr energiyasini kam sarflaydigan konstruksiyalarni, zamonaviy, to‘la avtomatlashtirilgan, mahsulot sifati boshqara oladigan ISO – 9001 va ISO – 9002 xalqaro standart talablari asosida yangi innovatsion texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, yaratilgan ilg‘or texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishni jadallashtirish orqali mahsulot sifati yaxshilash va tannarxini pasaytirishni aniqlash usuli dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamizda etishtirilayotgan paxta xomashyosidan yuqori sifatli tola, chigit va momiq mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni chuqur qayta ishlash asosida keng assortimentdagi yuqori sifat va past tannarxga ega bo‘lgan to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasida, jumladan, Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash bo‘yicha: «To‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki baravariga ko‘paytirish hamda sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish»¹ bo‘yicha vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda hususan, paxta tozalash sanoatida

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi tabiiy xususiyatlarini saqlash hamda resurstejamkor mahalliy texnologiyalardan foydalanib tolani chiqindiga chiqib ketib qolishini oldini olish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni, «Paxtachilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida»gi 2017 yil 28 noyabrdagi PQ-3408 son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 31 martdagi 253-sonli «Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa ma‘yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik, transport, mashina va asbobsozlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma‘lumki, paxtadan tola va chigitlarni ajralishida, o‘rta tolali paxta navlari uchun arrali jinlar va uzun tolali paxta navlari uchun esa valikli jin mashinalarini qo‘llanilishida bir qator horijiy olimlar katta hissa qo‘shgan. Jumladan, Eli Uitney, I.G. Boldinskiy, G.I. Miroshnichenko va boshqalar.

Arrali mashinasini rasman patent berilishi bilan ishlar boshlaganiga 140 yil bo‘lgan bo‘lib, uning mualliflari Amerika o‘qituvchisi Eli Uitney hisoblanadi. XIX – asrdan XXI – asrga qadar arrali jin mashinalari olimlar tomonidan bir necha bor o‘zgartirilib va takomillashtirilishiga erishildi. Natijada mashinaning ish unumdorligi va mahsulotlarni sifati davr talabi asosida ta‘minlandi. Arrali jin mashinalarini takomillashtirilishga O‘zbekistonning taniqli olimlarini ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Bular: R.G. Maxkamov, E.T. Maqsudov, N.Z. Kamalov, B.G. Qodirov, A.P. Parpiev, B.M. Mardonov, X.T. Axmedxodjaev, R.M. Muradov, M.T. Xojiev, va M.T. Tillaev Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijasida. Arrali jin mashinalarini ishlab chiqarishda bir qator yutuqlarga erishib, jindagi arralar soni 170 gacha chiqarib, jinning ish samadorligini oshirish bilan birgalikda jinning o‘zida paxtani va tolalarni tozalash samaradorligi oshirish natijalariga erishildi.

Shu bilan birga, Arrali jinning chigitdan tolalarni ajratishdagi paxta tolalarini tabiiy sifatini aniqlanishidan asosiy va yagona maqsad, arrali jindan keyingi tolalar sifati bilan solishtirish hamda arrali jin tolaning tabiiy sifatiga qay darajada va qancha foiz zarar etkazish muammolari etarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muxandislik – texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining ITD-3-65 raqamli “Paxta tozalash zavodlari tola sifatini yaxshilash va miqdorini oshirish maqsadida, chigitdan tola ajratish jarayonini jin mashinasi elementlarini yangi konstruksiyasini yaratish yo‘li bilan takomillashtirish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Chigitli paxtadan tola va chigitlarni sifatli qilib, pnevmomexanik usulda ajratib olish hamda ushbu jarayonda energiya sarfini kamaytirish va import ehtiyot qismlari nomenklaturasini keskin qisqartirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Paxtadan tola va chigitlarni pnevmomexanik usulda ajratilishida qurilmada chigitga va tolaga ta'sir etuvchi kuchlarni e'tiborga olgan holda nazariy tadqiqotlar analitik tahlil qilish;

tadqiqot natijalari tahlili asosida yangi jin mashinasi konstruksiyasini yaratish va ishni chizmalarini tayyorlash;

paxtadan tola va chigitlarni ajratilishi, ya'ni jinlash jarayonida chigit va tolalar xarakatlanishi va ularga qurilmaning asosiy ishchi organlari ta'sirini nazariy tadqiq qilish yo'li bilan pnevmomexanik jinning ratsional parametrlarini aniqlash;

yangi pnevmomexanik jin mashinasining tajriba qurilmasini tayyorlash rejali tajribalar o'tkazish va tajriba natijalarini qayta ishlash orqali jin mashinasining optimal parametrlarini aniqlash;

nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish yo'li bilan pnevmomexanik jinning samarali ishlashini ta'minlovchi texnologik parametrlarni aniqlash va ishlab chiqarish namunasini tayyorlash;

yangi jinda ishlab chiqarish sinovlarini o'tkazish va olingan natijalar tahlili asosida uning iqtisodiy samaradorligi bilan aniqlanadi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida chigitli paxta, shu paxtadan tola va chigitlarni ajratish jarayoni hamda mashina ishchi organlarni tajriba nusxasi olingan.

Tadqiqotning predmetini chigitli paxtadan pnevmomexanik usulda tola chigitlarini ajratish jarayoni va uni tadqiq qilish usuli hamda vositalari tashkil qilinmoqda.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida amaliy jarayonlarni statik va dinamik modellashtirish, to'liq faktorli eksperimentlar, kuzatish, o'lchash, solishtirish, baholash va maqsadli elektron dasturlar vositasida optimallashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi qo'yidagilardan iborat:

chigitdan tolalarni ajratishda tola massasi ta'sirlashuv maydoni kattaligiga bog'liq holda o'zgarishini hisobga olgan holda tola ajratgichning ishchi tishli juft silindrlarni bir biriga qarab aylanuvchi bir xil darajada og'dirilgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

tishli juft silindrlar tishlari bir biriga qarab aylanuvchi silindrlar tolani mexanik shikastlanisiz ajratib olishni ta'minlovchi, amaldagi arrali jindan farqli tola sifatini oshirish imkonini beruvchi ishchi silindr konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

paxta tolasini chigitdan ajratuvchi qurilmasining texnologik va konstruktiv o'lchamlari, silindirning og'ish burchagi va tishlar sonining ratsional qiymatlari bu ko'rsatkichlarning tola ajratish jarayoni va sifatini oshirish samaradorligining eng yuqori qiymatini ta'minlash shartidan kelib chiqib aniqlangan;

paxta tolasini chigitdan ajratish samaradorligining ishchi tishli juft silindirlarning shakli va o'lchamlariga bog'liq holda chigitdan tolalarni tishli silindirlar tishlari qisib olishi bilan ajratishni ta'minlovchi konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Pnevmomexanik usulda jinlashning yangi texnologiyasi va uskunasi ishlab chiqilgan;

paxtadan tola va chigitlarni bir tekisda ajratishda yangi ishchi organlari, havo oqimi va ish rejimi yaratilgan;

ko'p omilli eksperimentlar yordamida qurilmaning ratsional parametrlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot yakunida olib borilgan yangi va ilk bor qo'llanilayotgan innovatsion pnevmomexanik jindan olingan mahsulotlarni HVI laboratoriya tizimidagi sinov natijalari va real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarishga joriy qilinishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxtadan tola va chigitlarni yangi usulda ajratilishi jarayoni yo'nalishida yangi matematik modeli bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati paxta, tola va chigitlarni aerodinamik harakatining dinamik modeli yaratilgan hamda jinlash jarayonida fraksiyalarni harakati qonuniyatlari, paxtadan tola va chigitlarni ajratuvchi, ya'ni tubdan yangi pnevmomexanik jin mashinasini yaratilgani va ishlab chiqarishga joriy qilinganligini, paxta tolalarini seleksiya navlari bo'yicha HVI laboratoriya tizimida fizikaviy mexanik xususiyatlari aniqlangani, tadqiqot ishlari jarayonida ilk bor turli navli talalarni tabiiy sifat ko'rsatkichlarini halqaro universal standart asosida aniqlangani va bu ma'lumotlar paxta tolasini to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarni boyitishga xizmat qilishi, yaratilgan tajribaviy jin uskunalari va uni tadqiq qilish metodikasidan paxtani qayta ishlash yo'nalishidagi jinlash jarayoni bo'yicha oliy va o'rta maxsus muassasalari o'quv jarayonida foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxtadan tola va chigitlarni sifatli ajratib olishni ta'minlovchi pnevmomexanik jin mashinasi konstruksiyasini yaratish bo'yicha ilmiy – amaliy tadqiqotlar, natijalar asosida:

Paxtadan tola va chigitlarni ajratilishi bo'yicha, arrali hamda valikli jinlardan tubdan o'zgacha bo'lgan pnevmomexanik jin mashinasida ishlab chaqarilgan tolalar va urug'lik, texnik chigitlarni sifatini keskin oshirish imkonini beruvchi yangi jin konstruksiyasi "Namangan paxta teks" MCHJ ga qarashli Kosonsoy paxta tozalash AJ da ishlab chiqarishga joriy etildi ("Kosonsoy paxta tozalash" AJ ning 2022 yil 19 dekabrda sinov va joriy etish dalolatnomasi). Natijada paxtadan tola va chigitlarni sifatli ajratilishi jarayonida paxta tolalarining sifati (Len, Unf, SFI, va Str) o'rta hisobda 11,3% ga, urug'lik va texnik chigitlar sifati, chigitlar shikastlanishini kamayishi hisobiga 34% ga oshirilishi ta'minlanmoqda.

Pnevmomexanik jin mashinasining eksperimental qurilmasida tolalarning yuqori o'rtacha uzunligi 5,91% ga, uzunlik bo'yicha birhillik indeksi 2,2 % ga,

solishtirma uzilish kuchi 0.9% ga oshirilgan hamda tolalar tarkibidagi kalta tolalarni 34,03 % kamaytirilgani ishlab chiqarishda ko‘rib chiqildi (“ O‘zbekiston paxta – to‘qimachilik klasterlari” uyushmasining 2023 yil 22 iyundagi № 02/22-443- sonli ma’lumotnomasi); Paxta tolasining: S 65-24, S 82-86, Namangan-34, Namangan – 77, Andijon – 35 va Porloq – 2 seleksiya navlarini tabiiy sifati hamda pnevmomexanik jindan keyingi sifati ko‘rsatkichlari ISO xalqaro standarti asosida HVI laboratoriya tizimida testdan o‘tkazildi (O‘zbekiston paxta tolasini sertifikatlash “SIFAT” markazi Namangan xududiy laboratoriyasi sinovi natijalarini ma’lumotnomasi 2017 yil 19 aprel). Natijada paxta tolasini sifati 11.3 % ga oshirilishi hisobiga yiliga 2.1 mlrd so‘m iqtisodiy samara olishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 24 ta ilmiy anjumanlarda, shu jumladan 16 ta xalqaro, 6 ta Respublika konferensiyalarida va 2 ta ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari keltirilgan, tadqiqot ob'ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalari amaliyoti, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya ishining tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi «**Jin mashinasining samaradorligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili**» bo'limi adabiy manbalarni analitik tahliliga va paxtani jinlash jarayoni texnika va texnologiyalarining hozirgi holatiga bag'ishlangan. Ushbu bobda paxta tozalash korxonalarida tola sifatini yaxshilash, jin mashinasining tubdan yangi konstruksiyasini yaratish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar natijalari tahlil qilingan.

O'zbekistonda arrali jinlash jarayonini rivojlantirishning boshlanishi injener I. N. Botvinkin tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar hisoblanadi, deb bilish mumkin. Xomashyo valigi bilan arralarning o'zaro ta'sirini tajribaviy paxta zavodida o'rganish natijalari to'g'risidagi qator maqolalar chop etilgan.

Uzoq yillar davomida qator tadqiqotlar jinning samaradorligini oshirishning turli yo'llarini tanladi. Ishchi kameraning konfiguratsiyasi, ishchi kameradan jinlangan chigitlarning erkin chiqishi uchun chigit tarog'ining holati, kolosniklar shakli, arra tishining geometriyasi, arrali silindrning tezlik rejimi, arrali silindrning diametri, arralar oraliq masofasi o'zgartirilgan.

Tadqiqotchilar jinlash jarayonini nazariy ishlab chiqishda katta hissa qo'shishgan. Xomashyo valigining tarkibini, harakterini va jinlash tezligini, ishchi kameradan chigitlarni ajratib chiqish nazariyasini, jinning ishchi kamerasi va arra tishlarining shaklini, jinlash jarayonida nuqsonlar sodir bo'lish sababini va arra tishlarining qamrab olish imkoniyatini o'rganib chiqib, ularning hammasi ham bir tekisda tola bilan qoplanmaganligini va hammasi ham ishda qatnashmaganligini aniqlab chiqishgan. Arrali silindrning aylanishlar sonini $700...730 \text{ min}^{-1}$ gacha oshirish, valikning nisbiy tezligini arralarga nisbatan kamaytirish, kamera markazidan chigitlarni chiqarib tashlashni tezlatish, xomashyo valigining aylanishini engilashtirish maqsadida xomashyo kamerasining shaklini takomillashtirish kerak deb hisoblaydilar.

Shuningdek, arrali jin samaradorligini oshirishning asosiy yo'llaridan bo'lib, xomashyo valigining toladorligini oshirish, tozalangan chigitlarni tezlik bilan chiqarib tashlash bilan va bir tekisda uning zichligini kamaytirishdan iborat deb hisoblaydilar. Paxta tozalash sanoatida hajmi kattalashtirilgan kameralarning keng qo'llanilgani jinlar samaradorligini 10 kg/arra soat ga va undan yuqoriga ham oshirishga imkon berdi.

Tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra jinning kengaytirilgan hajmdagi kamerada ishlashi natijasida tolani sifatini yaxshilash asosan, xomashyo valigining zichligini kamaytirish hisobiga bo'ladi, bu esa tolani qamrab olishni yaxshilaydi,

paxtani kamera devorlariga ishqalanish kuchini pasaytiradi va jinni yuritishga sarflanadigan quvvatni tejash imkonini beradi.

Shuningdek, ular jinlash jarayonida xomashyo valigining ta'sirini o'rganib chiqib, xomashyo valigining kichik zichligiga tolaning sifat ko'rsatkichlari yuqori degan xulosaga kelganlar.

Ularning fikricha, xomashyo valigining zichligini pasaytirish tolalarni qamrab olishni yaxshilashga ko'maklashadi hamda ishchi kameraning va kolosniklarning yuzasida harakatdagi ishqalanish kuchlarini kamaytirishga va bu bilan tola sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Mavjud bo'lgan tola ajratuvchi mashinalarda samaradorlik bilan xomashyo valigining zichligi to'g'ri proporsionaldir.

Arra tishlari jinlash jarayonida asosiy vazifani bajaradi. Uning tuzilishi, uning ishchi yuzasiga ishlov berish sifati hamda tishlarining o'tkirligi va to'liq bo'lishi katta ahamiyatga ega. Arra tishlariga jinlash jarayonida qo'yiladigan asosiy vazifa – tolalarni maksimal darajada ilib olib, o'zining tishlar orasidagi yuzasini to'ldirishidir. Buning uchun uning yuzasi to'g'ri bo'lishi lozimdir.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, tolani ajratish jarayonida har-xil sharoitlar vujudga keladi, masalan, tishning chuqur yuzasi tola bilan to'liq to'lishi yoki to'liq to'lmasligi, tolani tishning faqat cho'qqisi bilan ilib olishi yoki murakkab ilishi va ilmasligi mumkin. Bu erda, shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida ko'rsatilgan jinlash hodisalari tishning ishchi kameraga kirishidan tortib, to chiqishigacha bo'lgan oraliqning har qanday nuqtasida amalga oshishi mumkin.

Jinlash jarayoni ko'p omillarga bog'liq, ular orasida eng asosiylari: ishlov berilayotgan paxtaning xususiyatlari, arraning aylanish tezligi va arra tishining geometrik o'lchamlaridir. Arra tishlari yoyi bo'ylab unga ilashgan tolaning hamda chigit tarog'i atrofida ajratib olingan tolaning sifatini aniqlab bo'lmaydi. Uni faqatgina kolosnikdan ortga o'tgandan keyingina aniqlash mumkin.

Bizning mashinalarni ishlash jarayoni bilan Amerika mashinalarining ishlash jarayoni tubdan farq qiladi. Bizning barcha jinlar bir kamerali, amerikaniki esa qo'shimcha tozalash-tayyorlash kamerasiga ega. Samaradorligi bo'yicha ham katta farq qiladi. AQSH jin mashinalarining unumdorligi yuqori. Ammo, so'ngi yillarda bu texnologiyani sotib olgan ko'pchilik mahalliy korxonalar ularning O'zbekiston sharoitida etarlicha samara bermayotganini ta'kidlamodalar. Qolaversa, bu mashinalarining narxi mahalliyliklariga qaraganda bir necha barobar qimmat bo'lib, ularga xizmat ko'rsatish, ehtiyot qismlar ta'minoti masalalaridagi qiyinchiliklar sababli, korxonalar yana mahalliy mashinasozlarga murojaat qilishga majbur bo'lmoqdalar. Shuning uchun, mamlakatimiz uchun paxta tozalash sohasi ilmiy va texnika-texnologiyasini rivojlantirish masalasi hozirgi kunga kelib har doimgidan ko'ra ham dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi «**Paxtadan tola va chigitlarni sifatli ajratishni ta'minlovchi yangi pnevmomexanik jin mashinasini texnologik parametrlarini nazariy asoslari**» bo'limida asosan yangi qurilmani tanlashda o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Mavjud jinlarda bir chigit modelini yaratish uchun paxtani berilgan navi uchun chigit hajmini aniqlash lozim. Buni quyidagi tenglama bilan aniqlaymiz:

$$V_c = \frac{m_c}{\gamma_c}, m^3$$

bu erda, m_c –chigitlar massasi, g;
 γ_s – chigitlarni zichligi, g/m³.

Zichlangan bir chigitning hajmi:

$$V_1 = \frac{m_1}{\gamma_1}, m^3$$

bu erda, m_1 –yakka chigit massasi, g;
 γ_1 –yakka chigit zichligi, g/m³. r

Bir chigitdagi paxta tolalarini hajmi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$V_e = V_1 - V_c, m^3.$$

Paxtani jinlash jarayonida chigit yuzasidagi tola qoplamasining qalinligi (r) ni 1-rasmdagi sxemaga asosan aniqlash mumkin.

Bir chigitdagi tolaning hajmi quyidagiga teng bo‘lsin:

$$V = 4\pi \cdot r(ac + r)(bc + r), m^3 \quad (1)$$


Bunda:

a-yakka chigit uzunligi mm,

b-chigitning xolaza qismini eni mm,

c-chigitning uch qismining eni mm,


r-yakka chigit ustidagi tola qatlamining qalinligi mm.




1-rasm. Jinlash jarayoni.

Jinlovchi valikli silindrning turli qiyalik burchaklarida, uning sirti bo‘ylab tolali chigitlarni jinlash jarayonidagi bosib o‘tgan yo‘lini va tezligini vaqtga bog‘lik o‘zgarish grafiklari olingan.


Boshlang‘ich shartlar: $v(0) = v_0$, $x(0) = 0$.



a)




b)




v)

2-rasm. Jinlovchi tishli juft silindrlarning turli qiyalik burchaklarida, uning sirti bo‘ylab totali chigitlarni jinlash jarayonidagi bosib o‘tgan yo‘lini vaqtga bog‘lik o‘zgarish grafiqi.


Grafiklarda: 1) $\alpha=32^\circ$, 2) $\alpha=45^\circ$, 3) $\alpha=60^\circ$. a) $m=0.01g$; b) $m=0.02g$; v) $m=0.03g$;



a)



b)



v)

3-rasm. Jinlovchi silindrning turli qiyalik burchaklarida, uning sirti bo‘ylab totali chigitlarni jinlash jarayonidagi tezliklarini vaqtga bog‘lik o‘zgarish grafiqi.

Grafiklarda:

1) $\alpha=32^\circ$, 2) $\alpha=45^\circ$, 3) $\alpha=60^\circ$, a) $m=0.01g$; b) $m=0.02g$; v) $m=0.03g$;

Paxta bo‘lakchalarining birinchi silindrdan boshlab tozalanishi va undan keyingi silindrlarda davom etishi qurilmani qiyalik burchagini o‘zgarishiga (paxta tezligi o‘zgarmagan holda) bog‘liq. Bunda qiyalik burchakgi 32° dan 60° ga o‘zgarganda 4,5 sekunddan 5,5 sekund davomida birinchi, ikkinchi,uchinchi va to‘rtinchi juft valiklarda paxta bilan ta‘minlanadi.

2-3 a,b,v-rasmdagi grafiklardan ko‘rishimiz mumkinki, paxta bo‘lakchalarini massasini ortishi harakatni va harakat tezligini sekinlashtirib borar ekan. Bu o‘z navbatida jinlash jarayoniga ijobiy ta‘sir o‘tkazadi. Bosib o‘tilgan yo‘l va tezlik grafklaridan birinchi va ikkinchi juft silindrlarda, uchinchi va to‘rtinchi juft silindrlariga nisbatan jinlash jarayoni intensiv bo‘lishini kuzatishimiz mumkin. Ya‘ni birinchi va ikkinchi juft silindrlarda 80% jinlash sodir bo‘ladi. Bu holatni

bosib o'tgan yo'lini vaqtga bog'lik o'zgarish grafigini parabolalik qonun bilan tezlikni vaqtga bog'lik o'zgarish grafigini esa o'suvchan to'g'ri chizikli qonuniyatidan kuzatishimiz mumkin.

Bu yerdatozalangan chigitlar paxta bo'lakchasining umumiy zichligidan yuqori va uskuna bilan qarshilik kuchlari kichik bo'lganligi sababli, o'z og'irlik kuchlari ta'sirida tushib ketadi.

Tolani chigitdan ajratish jarayonida paxta oqimining tezligi 1-2 seksiyali silindrlar 0.5 m/s, 3-4 seksiyali valiklar 2.3 m/s ga erishib paxta bilan to'la ta'minlanib, ish unumdorligini oshishiga olib keladi.

Ma'lumki, chiquvchi funksiyasining analitik ifodasi nomalum bo'lganda, bu funsiyani ko'pxadli regressiya tenglamasi ko'rinishida ifodalash mumkin.

$$y = b_0 + \sum_{i=1}^k b_i X_i + \sum_{i=1}^k b_{ii} X_i^2 + \sum_{i<j}^k b_{ij} X_i X_j + \sum_{i<j<l}^k b_{ijl} X_i X_j X_l \quad (2)$$

Bu yerda:
$$b_0 = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N \bar{y}_u, \quad b_i = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N X_{iu} \bar{y}_u,$$

$$b_{ij} = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N X_{iu} X_{ju} \bar{y}_u, \quad b_{ijk} = \frac{1}{N} \sum_{u=1}^N X_{iu} X_{ju} X_{ku} \bar{y}_u$$

Bu yerda: y – chiquvchi parametrini hisoblangan qiymati, x_i - mustaqil kiruvchi parametr, qaysiki ularning qiymati tajribani o'tkazishda o'zgarib turadi.

$b_0, b_i, b_{ij}, b_{ijk}$ - tajriba natijalaridan aniqlanadigan regressiya koeffitsentlari. (2) tenglama ko'rinishidagi matematik modelni qurish uchun "u" chiquvchi qiymati tanlanadi. Kiruvchi parametrlar o'zgaruvchan x_i - faktori tanlanadi.

$b_0, b_i, b_{ij}, b_{ijk}$ regressiya koeffitsentlari hisoblanadi va reja funksiyasining ko'rinishi aniqlanadi.

Tajriba rejasini yozish va tajriba natijalarini qayta ishlash uchun kichik x_1, x_2 xarflarda belgilanadigan faktorlarning kodlashgan qiymatlaridan foydalaniladi. X_i kodlashgan (o'lchamsiz kattalik) va X_i fizik (tabiiy) o'zgaruvchan quyidagi nisbatda o'zaro bog'langan.

$$X_i = \frac{x_i - x_{i0}}{\Delta_i} \quad (3)$$

Bu yerda $\Delta_{iu} = \frac{x_{\max} + x_{\min}}{2}$ – natural qiymatni variatsiya intervali

x_{i0} – nol darajasining tabiiy qiymati

$x_{i0} = \frac{x_{\max} - x_{i\min}}{2}$, $x_{i\max}$ $x_{i\min}$ – faktorni pastki va yuqori sathini natural qiymati.

Regressiya tenglamasini aniqlash uchun javoblar bo'yicha har bir funksiya uchun ikkita sathli ($k = 2$) uch omilli tajribaning matritsasini tuzamiz. \bar{y}_{ui} , orqali m parallel tajribalarda olingan, har biri n tajribada aniqlangan tola miqdori y_{0ui}

bo'yicha variatsiya koeffitsenti uchun tegishli qiymatlarini belgilaymiz. Shunday qilib $y_{ui} = \frac{1}{n} \sum_{l=1}^n y_{0ul}$, ($l=1.2...m$) ikkita tajribani o'tkazishda ko'rib chiqildi .

Fisher kriteriyasi bo'yicha tekshirsak F_{α, k_1, k_2} jadval qiymati bo'yicha, Bu yerda α - ahamiyatli sathi, qarab $k_1 = N - k - 1 = 4$, $k_2 = N(m - 1) = 16$, jadvaldan topamiz. Ushbu tengsizlik $F < F_{\alpha, k_1, k_2}$ bajarilsa adekvatlik gipotezasi bajariladi. $F_{\alpha, k_1, k_2} = 3.01$ bo'lganligi sababli ikkala hol uchun Fisher kriteriyasi o'rinli bo'ladi.


$$X_3 = -1 \quad (x_3 = 30^0)$$

Dissertatsiyaning uchinchi «Pnevmomexanik jin mashinasini yaratish» bobida mavjud valikli va arrali jinlar tahlili hamda yangi pnevmomexanik jin mashinasi konstruksiyasini ishlab chiqish, uning maqbul parametrlarini aniqlashga doir tadqiqotlar olib borilgan.

Bugungi kunlarda jahon paxta sanoatida ishlatilayotgan, ingichka va o'rta tolali paxtalarni jinlayotgan valikli hamda arrali jinlar ish jarayonida tolalarga mexanik shikastlanish keltirilishi yoki keltirmasligini chuqur va jiddiy o'rganish o'ta muhim bo'lmoqda.

Olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, arrali jinlarda ish organi sifatida arrali disklardan terilgan silindr xizmat qiladi, bu jindan tolani chigitdan ajratish uchun arrali disklar bilan kolosnikli panjara birgalikdagi ish jarayonida tola va chigitlarni sifatiga salbiy ta'sir qilishi aniqlanmoqda.

Mavjud valikli jin mashinasida (4-rasm) chigitdan tolalar ajratilishidagi ish jarayon bilan yaqindan tanishib chiqaylik.



4-rasm. Valikli jin mashinasining ishchi kamerasi.

Valikli jinda paxta aylanib turgan ish valigiga uzatiladi, valik sirti esa tolalarni o'ziga yopishtirib olib qo'zg'almas pichoq ostiga tortib kiritgizadi, shunda chigit qo'zg'almas pichoq tagiga tortilib qoladi.

Tolalarni chigitdan ajratuvchi kuch P quyidagi formula orqali topiladi:

$$P = T_1 - T_2 = N * (\mu_1 - \mu_2) \quad (4)$$

Bunda: T_1 va T_2 – tolalarning ish valigiga va qo‘zg‘almas pichoqqa ishqalanish kuchlari; $T_1 = \mu_1 * N, T_2 = \mu_2 * N$. N-pichoqning ish valigiga bosish kuchi; μ_1 va μ_2 - tolalarning ish valigiga va qo‘zg‘almas pichoqqa ishqalanish koeffitsientlari.

O‘rta tolali paxtalarni mavjud arrali jin mashinalarida jinlash jarayonida tolalar hamda chigitlar sifatidagi o‘zgarishlarni o‘rganish o‘ta muhim va dolzarb vazifa hisoblanadi.

O‘rta tolali paxtalardan tola va chigitlarni ajratuvchi mavjud DP-130, 4DP-130 va 5 DP-130 rusumli arrali jin mashinalari ish jarayonida paxta tolalariga qay darajada mexanik shikastlanish keltirishini aniqlash maqsadida, eng avvalo S 65-24, S 82-86, Namangan-34, Namangan-77, Andijon-35 va Porloq-2 kabi seleksiya navlaridagi paxta tolalarini tabiiy sifat ko‘rsatkichlari aniqlandi. Bunda avvalo chigitlardan tolalarni mexanik shikastlanishsiz qo‘lda ajratiladi.

Chigitdan qo‘lda ajratib olingan tolalar AQSH ning zamonaviy, ISO-Xalqaro standarti talabi asosidagi HVI (High Volume Instruments) yuqori samarali laboratoriya tizimida tolalarni sifat ko‘rsatkichlari 11 ta parametrlarda aniqlandi.

Mavjud arrali jinlar paxtadan tola va chigitlarni ajratishidagi ish jarayonlarini ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazilishi orqali ko‘rib chiqildi hamda chuqir taxlillar qilindi. Arrali jinlar o‘z vazifalariga ko‘ra laboratoriya va ishlab chiqarish jinlariga bo‘linadi. Arralar soniga qarab 10, 80, 90, 100, 112, 128, 130, 170 ta arrali disklari mavjud arrali jin mashinalari mavjud.

So‘ngi yillarda AQSHda valdagi arralar soni ko‘paytirilgan jinlar ishlatilmoqda. “Platt-Lyuimus”, “Mass-Gardin” va “Kontinental” firmalari jinlarida arralar soni 170 ta qilib ishlab chiqilmoqda. Ushbu jinlarni afzallik tomonlari ular to‘la avtomatlashtirilgan hamda jin mashinasining o‘zida tola maxsus garnaturali (SMPLi) barabanda tozalanib, pressga yo‘naltiriladi. Shuningdek, AQSH jinlari ikki ishchi kamerali bo‘lib, ikkinchisi ishchi kamera markaziga varoshitel o‘rnatilgan. Ushbu varoshitel vazifasi jindagi zichlikni kamaytirib, ish unumdorligini ko‘paytirishga xizmat qiladi.


O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan va bugungi kunda foydalanilayotgan DP-130, 4DP-130 va 5DP-130 arrali jinlardagi ishchi, xom ashyo kamerasi bitta bo‘lib, bunday jinlarda arrali disklar soni 130 ta hamda ularda kolosnik, prokladka, chigit tarog‘i va boshqa ishchi elementlar mavjud. Bunday jinlarda paxtani barqaror jinlash uchun quyidagi formulani yozish mumkin.

$$\Pi = QA/t_{o'r}$$

Bunda Π -ish kamerasining tola bo‘yicha ish unumi; Q-kameradagi paxta massasi; A-jinlash jarayonining o‘zgarish xarakteristikasi; $t_{o'r}$ -ish kamerasida tola va chigitning o‘rtacha turish vaqti.

Pnevmomexanik jin mashinasini yaratishdan asosiy maqsad, arrali jindagi mavjud arrali silindrdan qochish bo‘lmoqda. Arrali silindr o‘zining 130 arrali diski bilan nafaqat tolalarni o‘rtacha 3.22 foizini kesmoqda, balkim urug‘lik va texnik

chigitlarni shikastlanishini (droblyonnost) oʻrta hisobda 2.5-3.5 foizga oshirib yubormoqda. Shuningdek, urugʻlik va texnik chigitlarning oʻrtacha 0.35-0.55 foizini arrali silindr maydalab boʻlaklarga boʻlib yuboradi.



5 – rasm. Pnevмомеханик жин mashinasining texnologik sxemasi
Pnevмомеханик жин mashinasining texnologik sxemasi quyidagilar:


1-bunker; 2-paxta; 3-rezina lopusli valik; 4-tishli juft silindr; 5-tola novi; 6-tola; 7-soʻrish ventlyatori; 8-toʻla jinlanmagan tola; 9- toʻla jinlangan tola; 10-chigit novi; 11-nazorat oynasi; 12– korpus.

Pnevмомеханик жин mashinasi (5-rasm) quyidagi asosiy ishchi elementlardan tashkil topgan: shaxta, rezina parrakli valik taqsimlagich, tishli juft silindrlar, tola novlari, taroq, tortish ventilyatori va korpus.

Pnevмомеханик жин mashinasi quyidagicha ishlaydi; paxta, shaxta orqali rezina parakli taʼminlagichga keladi, taqsimlagich parraklari paxtani tishli juft silindr tomon yoʻnaltiradi, tishli juft silindrlar tishlari bir-biriga qarab aylanishi bilan bu silindrlar tishlari bir biriga kirishadi.

Bu sxemada koʻrish mumkinki, bir biriga qarab aylanuvchi tishli juft silindrlar oʻzaro bir biriga kirishmoqda. Rezina parrakli valik paxtani juft silindrlar tomon yoʻnaltirishi bilan paxta tishlar orasidan tortilayotgan havo kuchi bilan tishli juft silindrlarga yopishib chigitdan tolalar ajrala boshlaydi. Tishlar orasidagi boʻshliqda havo tortilib turish (6- rasm Pnevмомеханик жин qurilmasi ishchi kamerasini ish jarayoni) holati birinchi pnevmatik jarayon boʻlmoqda. Tishli juft silindrlar tishlarini paxtadagi tolalarni qisib olib chigitdan ajratishi bilan tolalarni havo tortib novlarga yoʻnaltiradi. Juft silindrdan tolalarni havo tortilishi orqali yechib olish ikkinchi pnevmatik jarayon boʻladi. Chigitdan tolalarni bir biriga qarab 200 ayl/daqiqa bilan aylanayotgan tishli juft silindrlarda ajratish holatini esa mexanik jarayon, deb olamiz. Tolalarni chigitdan ajralishidagi ikki pnevmatik

holat hamda bir mexanik holatni umumlashtirib, bu jarayonlarni pnevmomexanik jin qurilmasi, deb nomlandi. Ya'ni ularning sxemasi quyidagicha:



6-rasm. Pnevnomexanik jin qurilmasi ishchi kamerasini ish jarayoni.


Tolalardan bo'shagan chigitlar tishli juft silindr orasidan o'ta olmay, rezina parrakli valiklar orqali keyingi tishli juft silindrlar tomon yo'naltiriladi. Agar chigitlarda jinlanmay qolgan tolalar bo'lsa, keyingi tishli juft silindrda jinlanadi.

Yuqoridagi 6-rasmda ifodalangan rezina lopusli valikning aylana chastotasi 40 ayl/daqiqaga teng bo'lib, tishli juft silindrlar aylanish chastotasi (200 ayl/daqiq) ga nisbatan 5 marotaba kam qilib konstruksiyalandi. Ya'ni, bu nisbat ($n_1 < 5n_2$)ga teng.

Bir tishli silindr tishi bilan ikkinchi tishli silindr tishi tishlashishi orasidagi 0.25 mml oraliqda tolalar chigitdan qisilib ajraladi. Ushbu oraliqda (0.25mmda) tolalarni optimal ajralishi bo'lmoqda.

Pnevnomexanik jinning ish kamerasiga (7-rasm) paxta to'xtovsiz kelib tushishi, tola va toladan echilgan chigitlarni jindan to'xtovsiz chiqib ketishi yangi jinning to'xtovsiz ishlashini ta'minlaydi. Barqaror jinlash jarayoni uchun quyidagi tenglamani yozish mumkin:

$$\Pi = QA/t_{o'r},$$



7- rasm. Pnevмомеханик жин mashinasining bir seksiyasining juft tishli silindrlarning qirqimli ko‘rinishi

bunda P-ish kamerasing tola bo‘yicha ish unumi; Q-kameradagi paxta massasi; A-jinlash jarayoning o‘zgaras xarakteristikasi; $t_{o'r}$ -ish kamerasidagi tola va chigitning o‘rtacha tushish vaqti.


Tolaning uchish tezligi amalda 3m/s, tishli juft silindrdagi tishning chiziqli tezligi $U_t=12\text{m/s}$ bo‘lishi bilan tolni ajratuvchi havo oqimining tezligi 20m/s bo‘lishi zarur. Ammo tishlardan tolalarni ajratish uchun tortish havosining oqimi tezligini 45-55m/s bo‘lishi ta‘minlanadi.

Jinning ish unumi prof: G.I. Boldinskiy tomonidan taklif etilgan formulani qo‘llash mumkin bo‘ladi:

$$\Pi = N * \Pi_1$$

bunda N-silindrdagi tishlar soni, Π_1 -bir tishning ish unumi.

Pnevmomexanik jinning asosiy ishchi elementlari



8-rasm. Pnevmomexanik jinning ishchi juft tishli juft silindrlarini o‘zaro tishlashish holati, ko‘ndalang qirqimli ko‘rinishi va taroq ishchi element.

O‘tkazilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar va tolalarni mavjud arrali jinlarda, yangi jin qurilmasida hamda 6 xil seleksiya navlarida tabiiy sifat ko‘rsagichlari aniqlanishi bilan quyidagi solishtirma jadvallar tayyorlandi:

Porloq-2 seleksiya navidagi tolalarni HVI 900-SA laboratoriya tizimidagi xalqaro sifat ko‘rsatgichlarini solishtirma ko‘rinishi:

1-jadval.


